



Fidoyilik —  
Vatanga xizmat demak!

2024-yil 9-may, payshanba,  
55 (23.932)-son

**KUN  
HIKMATI**

Keksayganda  
xotirlashga  
arzigulik onlari,  
voqealari  
bo'lmagan umr  
tushga o'xshaydi

1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan



[www.zarnews.uz](http://www.zarnews.uz) <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) [https://twitter.com/zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)

# O'ZBEKISTON XALQIGA BAYRAM TABRIGI

## Aziz vatandoshlar, muhtaram faxriylar!

Bugungi shonli bayram – 9-may – Xotira va qadrlash kuni hamda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan buyuk g'alabani 79 yilligi munosabati bilan mo'tabar faxriylarimizni, ko'p millatli butun xalqimizni samimiy muborakbod etib, barchangizga o'zimizning chuqur hurmatim va ezgu tilaklarimni bildiraman.

Ushbu qutlug' kunda insoniyat tarixidagi eng dahshatli urushda jasorat ko'rsatib, bashariyatni fashizm balosidan saqlab qolgan qahramon ota-bobolarimiz hamda front ortida mardona mehnat qilib, g'alabani ta'minlashga munosib hissa qo'shgan mard va olijanob yurtdoshlarimiz xotirasiga yuksak hurmat-ehtiram bajo keltiramiz.

Jang maydonlaridan omon qaytib, mamlakatimiz ravnaqi yo'lida fidokorona xizmat qilgan, bugungi kunda ezgu duolari bilan hayotimizning fayz fuqarosi bo'lib kelayotgan qadrlil urush va mehnat faxriylariga cheksiz tashakkurimizni izhor etamiz.

Ayni vaqtda mustaqillik yillarida Vatanimiz ozodligi, xalqimizning tinchligi va osoyishtaligini himoya qilish hamda o'z xizmat burchini ado etish yo'lida halok bo'lgan jasur harbiylarimiz xotirasini minnatdorlik bilan esga olamiz.

## Qadrlil do'stlar!

Bugun barcha shahar va qishloqlarimizda o'tkazilayotgan tadbirlarda bu mudhish urush el-yurtimiz uchun qanday mislsiz talafot va musibatlar olib kelganini yana bir bor yodga olishimiz tabiiydir. O'sha og'ir yillarda frontga safarbar etilgan 1 million 950 mingdan ziyod o'zbekistonlik jangchilardan 538 mingdan ko'prog'i halok bo'lgani, 158 mingdan ortig'i bedarak yo'qolgani, 870 mingdan oshig'i turli jarohatlar olgani, 60 ming nafardan ziyodi esa nogiron bo'lib qaytgan bu g'alaba biz uchun naqadar qimmatga tushganini yaqqol ko'rsatib turibdi. Ana shu qirg'inbarot urush xalqimiz qalbida qoldirgan bitmas jarohatni, oradan shuncha vaqt o'tgan bo'lsa-da, hamon unutilib bo'lmaydi.

Urush davrida 214 ming askar va ofitserlarimiz jangovar orden va medallar bilan taqdirlangan, ularning 301 nafari Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga, 70 nafari uchala darajadagi "Slava" ("Shuhrat") ordeniga sazovor bo'lgani biz uchun, hech shubhasiz, buyuk g'alabani eng yorqin sahifalarini tashkil etadi.

Metin irdali xalqimiz o'sha tahlilali yillarda front ortida sabot va matonat bilan mehnat qildi. Sanoat korxonalarining faoliyati front ehtiyojlari uchun yo'naltirildi. Urush alangasi ichida qolgan hududlardan mamlakatimizga 170 dan ortiq zavod va fabrika ko'chirib keltirildi va qisqa muddatda ularning faoliyati qayta tiklandi. El-yurtimiz front uchun juda katta miqdorda harbiy texnika, qurol-yarog', dori-darmon, kiyim-kechak, oziq-ovqat va boshqa zarur mahsulotlar yetkazib berdi.

O'zbekiston aholisi 1941-1943-yillarda mudofaa fondiga 475 million rubldan ortiq mablag'ni, 22 million rubllik qimmatbaho shaxsiy buyumlarini ixtiyoriy ravishda topshirgani g'alabani yaqinlashtirishga yana bir muhim hissa bo'lib qo'shildi.

Xalqimiz yuksak odamiylik fazilatini namoyon etib, urush hududlaridan evakuatsiya qilingan 1 million 500 mingga yaqin insonga boshpana berdi. Ota-onasidan judo bo'lgan 250 ming nafar yetim bolalarga mehr-oqibat ko'rsatib, so'nggi burda nonini ham ular bilan baham ko'rdi.

## Aziz vatandoshlar!

Azim poytaxtimiz Toshkent shahrida xalqimiz jasoratining timsoli sifatida bunyod qilingan muhtasham "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi qisqa vaqt ichida qutlug' qadamjoga aylandi.

Shu kungacha bu yerga 2 million 200 ming nafardan ziyod ziyoratchi tashrif buyurib, uni katta qiziqish va e'tibor bilan tomosha qilgani ham bu fikrni tasdiqlaydi. Majmua jamoasi tomonidan ellikka yaqin kitob-albom va monografiyalar, noyob hujjatlar to'plamlari yaratilib, hozirga qadar noma'lum bo'lgan yuzlab tarixiy faktlar aniqlanib, jamoatchilikka yetkazildi.

"Bobomni izlayman" loyihasi doirasida urushda ishtirok etgan 2 million nafarga yaqin vatandoshlarimiz ro'yxati shakllantirildi. Yurtdoshlarimizdan kelib tushgan 300 dan ziyod murojaatlar bo'yicha urushda bedarak ketgan 200 nafar jangchining taqdiriga oid muhim ma'lumotlar to'plandi.

## Muhtaram do'stlar!

Bugungi bayram munosabati bilan jonajon O'zbekistonimizda xotira marosimlari, turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar, "uch avlod uchrashuvlari" o'tkazilmoqda. Tegishli vazirlik, idora va tashkilotlar, harbiy qismlar rahbarlari ishtirokida urush va mehnat faxriylari, mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va huquq-tartibot idoralari xodimlarining oila a'zolariga tabrik va sovg'alar topshirishga bag'ishlangan marosimlar tantanali vaziyatda o'tkazilmoqda.

Muhtaram urush faxriylari xalqimizning doimiy e'tibori va e'zozida bo'lib kelmoqdalar. Jumladan, yolg'iz yashayotgan urush va mehnat faxriylari, istiqolimiz himoyasi yo'lida halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning uy-joylari ta'mirlanib, obod qilinmoqda. Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlarining har biriga patronaj xizmati va zarur tibbiy muolajalar ko'rsatilmoqda. Ular o'z xohishlariga ko'ra sanatoriylarda davolanmoqda.

Hech shubhasiz, biz bugungi ozod va erkin hayot uchun aziz jonini ayamadan kurashgan bunday ulug' insonlar oldida doimo qarzdormiz, ular uchun bundan buyon ham barcha sharoitlarni yaratib beramiz.

Hozirgi g'oyat murakkab va tahlikali zamonda yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, farzandlarimizni turli zararli ta'sirlardan himoya qilish, bebaho boyligimiz bo'lgan tinchlik va barqarorlikni, millatlar va dinlarga do'stlik va ahillikni asrashdek o'ta muhim vazifalarni bajarishda qahramon faxriylarimizning jasorati, shonli an'analari biz uchun hamisha ibrat maktabi bo'lib xizmat qiladi. Biz ulardan ruh va kuch olib, Vatan himoyachilari, tinchlik posbonlari, Yangi O'zbekiston bunyodkorlari bo'lishdek yuksak burchimizni albatta sharaf bilan ado etamiz.

## Aziz va muhtaram yurtdoshlar!

Siz, azizlarni bugungi ulug' ayyom bilan yana bir bor chin qalbidan tabriklayman. Barchangizga sihat-salomatlik, baxt va omad, xonadonlaringizga fayzu baraka tilayman.

Yurtimiz tinch, xalqimiz doimo omon bo'sin!

**Shavkat MIRZIYOYEV,**  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.



# JASORAT – MILLAT G'URURI VA IFTIXORI

Xotira va qadrlash kuni hamda Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g'alabani 79 yilligi bu yil mamlakatimizda shu shior ostida nishonlanmoqda.

Davlatimiz rahbarining shu yil 16-apreldagi qarori hamda farmoniga ko'ra, viloyatimizda ushbu sanani munosib nishonlash uchun puxta tayyorgarlik ko'rildi. Urush va mehnat fronti faxriylari, keksa avlod vakillarini ijtimoiy muhofaza qilish va moddiy rag'batlantirish, ularning turmush sharoitini yaxshilash borasida keng ko'lami ishlar amalga oshirildi. Ta'lim muassasalari, mahallalarda keksa avlod vakillari bilan uchrashuvlar, madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilmoqda.

Viloyat hokimi E.Turdimov viloyat faollari, Markaziy harbiy okrug qo'mondonligi bilan birga Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari xonadonlariga borib, ularga Prezidentimiz tabrigi va pul mukofotini, viloyat hokimligining sovg'alarini tantanali topshirdi.

Jumladan, Samarqand tumanida istiqomat qiluvchi Ahad Ochilov davlatimiz rahbarining tabrigi va 20 million so'm pul mukofotini qabul qilib oldi, Prezidentimizning minnatdorligini ta'kidladi.

– Navro'z bayramida ham viloyatimiz hokimi xonadonimizga kelib, hurmatli Prezidentimizning tabrigi va sovg'alarini yetkazganida boshim ko'kka yetgandi, – deydi qariyb yuz yoshni qarshilayotgan Ahad Ochilov. – O'sha quvonch va faxr hali ko'nglimni chog' qilib turganda mana bugun yana mukofot va sovg'alar oldik. Ming rahmat! Bizni e'zozlayotganlar omon bo'lsinlar!



Viloyat hokimi Samarqand shahrida istiqomat qiluvchi Mixail Kolmogorov xonadonida ham bo'lib, davlatimiz rahbari tabrigi va pul mukofotini topshirdi. Fayzli dasturxon atrofida kechgan suhbat chog'ida tinchlik qadri, yurtimizda keksalarga bo'lgan e'tibor va g'amxo'rlik, yoshlar ta'lim-tarbiyasi haqida so'z yuritildi. M.Kolmogorov mehmonlarga minnatdorlik bildirib, ularni ham bayram bilan tabrikledi.

Viloyat IIB boshlig'i, ikkinchi sektor rahbari R.Mamatov bir guruh mutasaddilardan birga Urgut tumanida yashovchi Bo'ron Gadoyevni bayram bilan tabriklab, Prezident tabrigi va pul mukofotini yetkazdi. Shuningdek, otaxonga viloyat va tuman hokimliklarining sovg'alari topshirildi.

Kattaqo'rg'onlik Rahmat Qobilov va Rayim Yusupovga viloyatimiz rahbarlari Prezident sovg'alari va tabrigini tantanali ravishda topshirib, ularni bayram bilan qutladi.

# VILOYATIMIZDAGI IKKINCHI JAHON URUSHI QATNASHCHILARI



**Rahmat Qobilov** 1926-yilning 2-mayida Kattaqo'rg'on tumani Bog'ot mahallasida tug'ilgan. 1943-yilda 1-Ukraina frontiga jo'natilgan. 1945-yilda bo'lim komandiri darajasiga erishgan. 1945-1950-yillarda Avstriyaning Vena shahrida xizmat qilgan. 1950-yilda O'zbekistonga qaytib kelib, 1985-yilgacha jamoa xo'jaligida ishlagan. Umr yo'ldoshi Muayassar Rustamova bilan o'n nafar farzandni voyaga yetkazib, uyli-joyli qilgan.



**Rayim Yusupov** 1925-yilning 10-mayida Kattaqo'rg'on tumani Tarnov mahallasida tug'ilgan. 1943-yilda harbiy tayyorgarlikdan o'tkazilib, 2-Ukraina frontiga yuborilgan. 1945-1949-yillarda Ruminiyaning Faksan shahrida urushdan keyingi tinchlikni ta'minlash xizmatida ishtirok etgan. 1949-yilda Kattaqo'rg'onga qaytib kelgan. Rayim Yusupov turmush o'rtog'i Ochiltosh Pirboyeva bilan yetti nafar farzandni voyaga yetkazgan.



**Ahad Ochilov** 1925-yilning 10-martida Samarqand tumanidagi Arabxona mahallasida tug'ilgan. 1942-yilda urushga ketgan. 2-Ukraina frontida Dnepr daryosi, Moldaviya, Karpat tog'i, Ruminiya, Vengriya, Chexoslovakiya, Polsha, Germaniyaning Berlin shahridagi janglarda qatnashgan. 1949-yildan 2006-yilgacha Samarqand tumanidagi 3-o'rta maktabda o'qituvchi, ilmiy bo'lim mudiri lavozimlarida ishlagan. Umr yo'ldoshi Zubayda Ochilova bilan uch o'g'il, uch qizni kamolga yetkazgan.



**Bo'ron Gadoyev** 1925-yilda Urgut tumani Ispanza mahallasida tug'ilgan. Urushga 1943-yilda 18 yoshida yuborilgan. 7-Belorusiya frontida xizmat qilgan. 3 yil davomida 91-injenerlik qo'shinida bo'lim boshlig'i bo'lgan. 1946-yilda xizmatdan qaytib, hayotini pedagogika sohasiga bag'ishladi. 5 nafar farzandni voyaga yetkazib, uyli-joyli qildi. Hozirda 21 nafar nevara, 66 nafar evara va uch nafar chevaraning suyuqli bobosi.



**Mixail Kolmogorov** 1925-yilning 20-noyabrda Rossiyaning Novosibirsk shahrida dunyoga kelgan. Maktabni tugatishi bilan, 1943-yilda urushga safarbar qilingan. 2-Ukraina frontining 8-mexanizatsiyalashgan korpusi 68-mexanizatsiyalashgan brigadasida aloqachi bo'lib harbiy xizmatni boshlagan. Keyin 2-Belorusiya frontida shu vazifada xizmat qilgan. M.Kolmogorov urush yillarida qator orden, mukofot va medallar bilan taqdirlangan. Ikki qizning otasi, to'rt nafar nabira, ikki nafar evara va besh nafar chevaraning bobosi.

**Kattaqo'rg'on tumanida Rahmat Qobilov va Rayim Yusupov, Samarqand tumanida Ahad Ochilov, Urgutda Bo'ron Gadoyev, Samarqand shahrida Mixail Kolmagorov.**

Ular viloyatimizda elning e'zozida, davlatning doimiy e'tibori va g'amxo'rlikidan bahramand bo'lib hayot kechirayotgan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari, yuz yosh ostonasidagi piru badavlat nuroniylar.

Bu farishtali faxriylarning yashash manzillari, xonadonlari ko'pchilikka yaxshi tanish. Rahbarlar ham, oddiy aholi ham yaxshi biladi. Bu faqatgina ushbu xonadonlar eshigida qo'yilgan Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi istiqomat qilishi to'g'risidagi lavha bilan bog'liq emas, shusiz ham hamma yaxshi biladi va ta'bir joiz bo'lsa, uy oldidan o'tayotganda albat, ichkaridagi urush faxriysiga bugungi tunch-osuda kunlar uchun ich-ichidan rahmat aytadi, minnatdor bo'ladi.

Uzoq emas, yaqinda Navro'z bayramida bu faxriylarga Prezident sovg'alari yetkazildi, Ramazon hayitida avvalo, ular yo'qlandi. Viloyat hokimi, Markaziy harbiy okrug qo'mondonligi va mahalliy rahbarlar urush qatnashchilari xonadoniga borib, ular bilan dildan suhbatlashdi.

Shu kunlarda faxriylar yashash manzillari yana mehmonlar bilan gavjum,

## NURONIYLAR E'ZOZDA

goh viloyatdan, goh tuman va shahardan kelib, ularni Ikkinchi jahon urushidagi g'alabaniy 79 yilligi bilan tarbiqlashyapti, urush yillari xotirlanib, bugungi kunlarga shukrona aytilmoqda.

– Ma'lumotlarga ko'ra, Ikkinchi jahon urushida viloyatimizdan 152 ming kishi frontga jalb etilgan, front ortida fidokorona mehnat qilganlar esa bundan bir necha barobar ko'p bo'lgan, – deydi “Nuroniylar” jamg'armasi viloyat bo'limi raisi Shuhrat Negmatov. – Afsuski, 73 ming nafar vatandoshimiz urush o'choqlarida vafot etgan, ularning nomi xotira kitoblarida bitilgan. Urushdan qaytib kelganlar ham nafaqat tan jarohati, balki qalbidagi o'sha yillar azob-uqubatlarini, yo'qotishlar tufayli paydo bo'lgan og'riqlar bilan yashadi. Yuzi kuni tursa-da qalbining tub-tubida bitmas jarohatlar borligini anglash qiyin emasdi. Ular safi ham yildan-yilga kamayib borayotgani ko'ngilni og'ritadi. O'tgan yil viloyatimizdagi Xotira va qadrlash kuni tadbirlarida 10 nafar nuroniylarimizni bayram bilan tabriklagandik, ularning g'animat ekanliklarini his qilib, ko'proq suhbatlarini eshitishga intilgandik. Ming afsus, bugun ular besh kishi qolgan. Har birlari qariyb asrga tengdosh,



bugungi har bir kunlari asrlardak qadrlidi. Davlatimiz rahbarining qaroriga ko'ra, bu yil yurtimizda Xotira va qadrlash kuni va Ikkinchi jahon urushidagi g'alabaniy

79 yilligi “Jasorat – millat g'ururi va iftixori” shiori ostida nishonlanmoqda. Qaror asosida urush qatnashchilari va frontorti mehnat faxriylarining salomatligini mustahkamlash,

ularning turmush sharoitini yaxshilash, zarur tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish borasidagi ishlar allaqachon boshlangandi. Prezidentimiz farmoniga ko'ra, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlarining har biri 20 million so'mdan pul mukofoti bilan rag'batlantirildi.

– Biz besh nafar urush qatnashchisining ham xonadoniga borib, ulardan hol-ahvol so'radik, yashash sharoiti bilan tanishdik, – deya so'zida davom etadi Sh.Negmatov. – Aslida, ular har lahzada davlatimizning e'tiborini his qilib yashayapti, atrofida farzandu nabiralari, evara-chevaralari parvona. Aytish mumkinki, go'dakdek parvarish qilinayapti. Har bir urush qatnashchisining salomatligi hududiy poliklinikalarning doimiy nazoratida, patronaj hamshira birlashtirilgan.

Bundan tashqari, tuman va shaharlar-da front orti mehnat faxriylari, keksa avlod vakillari va Vatanimiz mustaqilligi, xalqimiz osoyishtaligi yo'lida jon fido qilgan harbiylar oila a'zolaridan hol so'ralmoqda. Ayni paytda viloyatimizda 349 nafar front orti mehnat faxriysi, 2000 nafarga yaqin o'zgarlar parvarishiga muhtoj, yakka-yolg'iz keksalar istiqomat qiladi. Bu yurtdoshlarimizga ham davlat tomonidan ijtimoiy-moddiy yordam ko'rsatilishi barobarida jamg'armamiz hisobidan, shuningdek, homiyjar jalb etilgan holda uy-joylari ta'mirlanayapti, oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmon berilmoqda.

**G'olib HASANOV.**



**TARIX** ning

insoniyat  
saboq olmagan

**ENG  
KATTA FOJLASI**

**Tarixni o'rganish shuning uchun kerakki, biz undan saboq chiqarishimiz lozim. Ikkinchi jahon urushi dahshatlarini eng qisqa tarzda bayon etadigan bo'lsak, quyidagi raqamlar paydo bo'ladi:**

Bu urush dunyo bo'yicha 37,2 million odamning yostig'ini quritgan. Sobiq ittifoq davlatlaridan 26,5 million, Germaniya va uning ittifoqchilaridan esa 8 milliondan 13 milliongacha odam qurbon bo'lgani aytiladi. Shuningdek, Polshadan 6 million, Yaponiyadan 3 million nafargacha odam nobud bo'lgan. Urush boshlangan davrda O'zbekiston aholisi 6,5 million kishiga

yaqin edi. Shundan 1,5 million kishi urushga safarbar qilingan. Qo'lga qurol olib jang qilgan o'zbekistonliklarning umumiy tarkibidan 538 ming kishi halok bo'lgan, 158 ming 670 kishi bedarak yo'qolgan, 60 ming 452 vatandoshimiz urushdan nogiron bo'lib qaytgan. Urush dahshati mana shu.

Qarang, millionlab insonlarning yostig'ini quritgan Ikkinchi jahon urushi tugaganiga sakson yil bo'lyapti. Insoniyat bu urushda ko'p narsa boy berdi. Undan olingan yagona narsa esa — saboq bo'lish kerak edi. Buni qarangi, jahon urushi yakuni deyilgan kun — 9-mayni eng muhim sana darajasida har yili jahonshumul ulkan tantanalar bilan nishonlaydigan davlatlarda bugun yana urush. Mojarolar turli nom bilan atalmasin, unda yana yuz minglab askarlar allaqachon

jon berayotgani ko'rinish turgan haqiqat. Taassufki, tarixdan xulosa chiqarilmagan ekan, qator davlatlarda har yili o'tkazilgan 9 – may tadbirlari tarixning achchiq kunlarini eslash emas, kuch-qudrat namoyishiga aylangan ekan.

Shular haqida o'yarlarkanman, 9-may sanasining nima sababdan “Xotira va qadrlash kuni” deb o'zgartirilgan oydinlashadi. Toki, urush, unda qon kechganlar xotirasi hurmat qilinar, tirik qolganlar e'zozlanar ekan, mamlakatda hech kim urush tarafdori bo'lmaydi. Chunki urush ishtirokchilarini qadrlash bu avvalo, urushga boshqa yo'l qo'ymaslikdir.

Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari yurtimizda sanoqli. Ular doimiy va har qachongidan ham ko'proq e'zozda. Xususan, Kattaqo'rg'on tumanida ikki nafar urush qatnashchisi – Bog'ot mahallasida 99 yoshli Rahmat bobo Qobilov va Tarnov mahallasida 98 yoshli Rayim bobo Yusupov istiqomat qiladi. Tumanga borganimizda bizga ming istihola bilan bo' otaxonlarni bezovta qilmasak yaxshi bo'lardi, deyishdi. Sababi, keyingi kunlarda ko'plab tashkilotlardan ularning xonadoniga mehmonlar borgan, sovg'a-salomlar ulashilgan, suhbatlashilgan, xabar olingan... Xullas, ma'lum muddat dam olishlari lozimligini aytishdi. Bir tomondan, ko'rishmaganimizdan biroq afsuslandik, ikkinchi tomondan, bugun bu faxriylar hammaning e'tiborida ekanidan xursand bo'ldik. Mayli, o'z vaqtida tinchlik uchun qo'lga qurol ushlagan bu bobolarimiz har qancha e'zozga loyiq.

Shundan so'ng arxivdan, OAV sahifalaridan, ushbu faxriylarning shu kungacha e'lon qilingan suhbatlarini qiziqib, o'qib chiqdim. E'tibor bering, eng ko'p nima haqda gapirishgan: “Urush bo'lmasin!”

Yaqinlari ham, tumandagi katta-kichik tashkilot vakillari ham urush qatnashchilaridan eng birinchi shu gapni eshitishlarini bildik. Urush ko'rgan, qon kechgan odam uning dahshatini ham bizdan ko'ra yaxshiroq anglashi shubhasiz.

Darvoqe, urush qatnashchisi Rahmat bobo Qobilovning o'z xotiralaridan yaqindagina aytgan so'zlari videolavhasini ko'rib chiqdim: “1943-yil, uch oylik tayyorgarliklardan so'ng meni Xarkov shahriga urushga tashlashdi... urushga kirishim mana shu shahardan boshlanadi. Bu shaharni ozod qilishda hissamiz bo'lgan”, deya og'ir xotiralarini qiyonlab, so'zlaydi bobo. Meni esa o'y bosadi, yaxshiyamki bobo hozir ham Xarkov urush maydoniga aylanganini bilmaydi. Yo'qsa, o'z vaqtida yuz minglab o'g'lonlarning oqqan qoni bekor ketibdi, deb nadomat chekishi aniq...

Albatta, siyosatchi yo ekspert emasman, bugungi mojarolarda qaysi tomon aybdor ekan haqda ham xulosa bermayman. Aytal olganim shuki, insoniyat o'z boshidan kechirgan eng katta urushdan saboq chiqarmagan ekan! Urush bo'lmasin, deya har kuni aytadigan bobolarimizga esa hurmatimiz cheksiz.

**Anvar MUSTAFOQULOV.**

**Samarqand shahri chorrahalaridagi svetoforlar yangisiga almashtirilmogda. Xo'sh, bu svetoforlar oldingisidan nimasi bilan farq qiladi? Qanday qulayligi yoki afzalligi bor?**

## Samarqand shahrida “aqli svetofor”lar ishlaydi

– Ko'chalarda tirbandliklarni bartaraf etish, haydovchi va piyodalarga qulay sharoitlar yaratish maqsadida “Aqli svetofor” dasturi doirasida chorrahalardagi eski svetofor obyektlari yangi svetofor qurilmalari va boshqaruv apparatlariga almashtirilmogda, – deydi viloyat IIB yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi axborot xizmati rahbari Xurshid Safarov. – Xitoyda ishlab chiqarilgan bu qurilmalar xalqaro standart talablariga mos, issiq va sovuq ob-havo sharoitlariga chidamli, haydovchi va piyodalar uchun ko'rinishi aniq, qizil va yashil chiroqlarning almashish vaqtini ko'rsatib turadi.

Svetofor qurilmasi alohida imkoniyatlariga ega bo'lib, har bir yo'nalishdagi kuzatuv kamerasi, chorrahada harakatlanib o'tayotgan transport vositalarini videotasvirga oladi. Svetofor qurilmalari hamda kuzatuv kameralari boshqaruv apparatiga ulanadi va videotasvirga olingan ma'lumotlar asosida chorrahadan o'tayotgan transport vositalarining hisobini jamlaydi. Transport oqimidan kelib chiqib, svetofor qurilmasining ishlash tizimiga avtomatik o'zgartirish kiritib, tartibga soladi. Boshqaruv apparatida elektr quvvati zaxirasini ushlab turuvchi batareyalar o'rnatilgan. Bu esa elektr tarmog'ini ta'minotida uzilish bo'lganda svetofor qurilmasini 5 soatgacha elektr bilan ta'minlash imkoniyatini beradi.

Chorrahalarda o'rnatilgan svetofor qurilmalarining boshqaruv apparati viloyat ichki ishlar boshqarmasidagi situatsion markazga ulanadi. Bu transport vositalarini kuzatish, ularning hisobi, ro'yxatdan o'tkazish davlat raqam belgilari, turlari, harakatlanib o'tgan vaqti to'g'risidagi ma'lumotlarni olish, transport oqimidan kelib chiqib, svetofor qurilmasining ishlash tizimini operator tomonidan o'zgartirish imkoniyatini beradi.



**Yaqinda O'zbekiston televideniyesida bir ko'rsatuvga ko'zim tushdi. Harbiy xizmatchilar, hatto bir oy muddatga harbiy xizmatga chaqirilganlar haqida hikoya qilindi. Ochig'ini, harbiy qismidagi sharoitlarni, yigitlarimizning harakatlarini, kitob o'qishi, sport bilan shug'ullanishi, harbiy malakani oshirish borasidagi mashg'ulotlariga havasim keldi. Bilishimcha, maktab o'quvchilari, ota-onalar ham harbiy qismlarga borib, askarlar bilan muloqotda bo'lib, ularning faoliyatini kuzatishyapti. Bu juda yaxshi an'ana. Chunki harbiy xizmatda yigit jismoniy jihatdan gina emas, ma'naviy jihatdan ham toblanadi, fe'li sinovdan o'tadi. Ayniqsa, o'z hayotini ota-onasi, opa-ukalari va boshqa yoshlar kuzatayotganligini sezsa, uning mas'uliyati oshadi. Shularni o'ylar ekanman, o'zimning yigitlik davrim esga tushdi...**

## Harbiy xizmat – hayot maktabi

**UNDA YIGITNING JISMI, XISLATI TOBLANADI**

Samarqand tumanida tug'ilganman. 1967-yilda o'rta maktabni bitirgach, matematikaga qiziqqanim uchun moliya texnikumiga o'qishga kirdim. Lekin bir yil o'tib, meni harbiy komissariyatga chaqirishdi. Xullas, Afg'oniston chegarasidagi harbiy qismda tayyorlashgach, rus tilini yaxshi bilganim uchun Vengriyaning Seyedeg shahridagi chegaraga qo'shinlariga jo'natishdi.

Mening yoshimdagilar sobiq ittifoq armiyasidagi tartib-intizomni yaxshi bilishadi. Harbiylar hayotidan deyarli ko'rsatuvlar bo'lmasdi. Faqat radioeshittirishlar, talablariga binoan kontsertlar berishardi, xolos. Vaholanki, o'zini dunyodagi qudratli armiya hisoblagan bu kuchning ichida siz-u biz tasavvur qilolmaydigan holatlar ro'y berardi. Ulardan biri albatta? «dedovshina», ya'ni ikki-uch yil xizmat qilgan erkatoylarning yangidan kelgan yigitlar ustidan zo'ravonligi edi. Bu odat armiya tarqab ketguncha ham barham topgan emas. Bunga o'zim guvoh bo'lganman. Yana bir yoqimsiz an'analar bor edi. Praporshik yoki kichik komandirlar yosh askarlarga safda yurishni o'rgatish, mashqlarni qildirish jarayonida ularni ko'lmak yoki loy joylarga ham yotib-turishga majbur qilishardi. Bunday buyruq nizomida bor, hech kimga dod deya olmasan. Tabiiyki, loyga chaplangan ust-bosh bilan safda turish mumkin emas, demak, yarim soat ichida kiyimlarni tozalab, qaytib kelish kerak. Aks holda, navbatdan tashqari «naryad»da turasan. Bu degani, kechqurungi kinoning o'rniga to askarlar qaytguncha koridor va yotoqxonalarini yuvib chiqish



lozim. Harakteri bo'shroq, ko'ngilchan yosh askarlar qariyb bir yil davomida ana shu «naryad»lardan bo'shamasdi.

Harbiy xizmatda yigitlarning ko'pchilik bilan munosabatda kimligi bilinib qoladi. Ayniqsa, qismda ko'pchilikni tashkil etgan millat vakillari boshqalarga zo'rlik qilishga urinishardi.

Bir kuni tushlik qilayotgan paytimizda kosamga bir burda non kelib tushdi. Borshning ancha qismi gimnastyorka va shimimga o'kildi. Nonni otgan serjant Rachiyevskiy kechirim ham so'ramadi, aksincha ustimdan kuldi. Kiyimlarimni yuvib, dazmollab ancha vaqtdan keyin safga qo'shildim, ichimda alamim qoldi. Ko'p o'tmay, oshxonada navbatchilik paytimda qulay paytni poylab o'sha serjantning boshiga kartoshka bo'tqa-

sini to'kdim. Qiyomat bo'ldi deng! Ertasiga harbiy prokuratura meni tergov qildi. Chunki serjant anchagina qiyonalgan ekan, yuzi, bo'yniga zarar yetgan. Meni 25 sutkaga qamab qo'yishdi. Lekin tergovchiga bitta javobni qaytaraverdim:

– U menga uzoqdan turib nonni otdi, bizda non ulug' ne'mat hisoblanadi, uni oyoqosti qilish, uloqtirish mumkin emas, shuning uchun uni jazoladim.

Tushunish qayerda deysiz, eshitishni ham istashmaydi. Chunki ular ko'pchilik.

Qamoqda qorovullar boshlig'i men bilan suhbatlashdi. Tergovchiga aytgan gaplarimni unga ham qaytardim. Yoshi katta bo'lgani uchun unga «Urush ko'rganga o'xshaysiz, nonning qadri bilsangiz kerak, o'rtoq mayyor?», dedim. U «Ha, o'g'lim, endi hech kim urush ko'rmasin. Dushmaniga ham ravo ko'rmayman, o'zing qayerdanson?», dedi. Men O'zbekistondan, Samarqanddan ekanligimni aytdim. Uning chehrasi ochildi. Bu shaharda bir muddat yashagani, odamlarimizning mehribonligi, saxovatpeshaligi, mehmondo'stligi haqida gapirdi. Qurolodosh do'stlari ko'p bo'lib, hozirgacha bordi-keldi qilar ekan. Ancha dardlashdik.

Ertasiga o'zini 5-rotas komandiridan deb tanishtirgan mayyor Badel harbiy sudga borib, meni jazodan ozod qildi hamda aviatsiya polkining qurovchilar vuzvodiga yuborishdi. U yerda do'stlar orttirib, xizmatni tugatib qaytdim. Lekin o'sha davrda bo'lib o'tgan voqealar hali-hamon esimdan chiqmaydi.

**Qiyom RO'ZIEV, mehnat faxriysi.**

# O'ZBEKISTON KASABA UYUSHMALARI FEDERATSIYASI

## Samarqand viloyat kengashi

Nuroniy otaxonlar va munis onaxonlarimizni Xotira va qadrlash kuni bilan qutlaydi. Vatan ozodligi, yurt tinchligi yo'lidagi zahmatli mehnatlaringiz unutilmaydi.



AKSIYADORLIK KOMPANIYASI SAMARQAND FILIALI JAMOASI

*Xotira va qadrlash kuni bilan barcha yurtidoshlarimizni muborakbod etadi. Tinchligimiz uchun kurashgan faxriylarimiz va shahid ketgan o'zbek o'g'lonlari xotirasi oldida doimo ta'zimdamiz!*



## ATIB IPAK YO'LI BANKI

### SAMARQAND FILIALI



**Xalqimizni  
9-may – Xotira va qadrlash kuni bilan samimiy qutlaydi. Yurtimiz doimo tinch, osmonimiz musaffo bo'lsin. Xonadoningizdan qut-baraka arimasin!**



#### DA'VOLAR BO'LSA

Samarqand tumani "Yagona darcha" markazidan 2017-yil 20-dekabrda 560021 reestr raqami bilan ro'yxatga olingan "GULOBOD AGROSERVIS MTP" mas'uliyati cheklangan jamiyati (qisqartirilgan nomi: "GULOBOD AGROSERVIS MTP" MChJ, STIR: 305181168) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-martdagi PQ-168-sonli qaroriga asosan tugatilmogda.

Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha da'volar gazetada e'lon chop etilgach, bir oy davomida qabul qilinadi.

**Manzil: Samarqand shahri R. Hoshimov ko'chasi, 26-uy.**

Samarqand shahar davlat xizmatlari markazidan 2020-yil 19-iyunda 861367 reestr raqami bilan ro'yxatga olingan "SAKSAUL CHOYXONA" mas'uliyati cheklangan jamiyati (qisqartirilgan nomi: "SAKSAUL CHOYXONA" MChJ, STIR: 307488313) o'z ustav fondi miqdorini 30000000 (o'ttiz million) so'mdan 300000 (uch yuz ming) so'mga kamaytirmogda.

Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha da'volar gazetada e'lon chop etilgach, bir oy davomida qabul qilinadi.

**Manzil: Samarqand shahri Ro'ziboyev ko'chasi, 1-A-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasida marhum Nigmatov Jamshet Xamrokulovichga (2022-yil 3-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmogda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 18-uy, 51-xona.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasida marhum Osipov Sergey Konstantinovichga (2011-yil 29-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmogda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Rahimova Komila Faxriyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 51-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bobomurodov Pirmamat Isomidinovich notarial idorasida marhum Kadirov Maxmud Toshovichga (2021-yil 6-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmogda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bobomurodov Pirmamat Isomidinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 12-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bobomurodov Pirmamat Isomidinovich notarial idorasida marhum Xasanov Raim Gulyamovichga (2012-yil 27-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmogda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bobomurodov Pirmamat Isomidinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 12-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Djafarova Sulton Xamrokulovnaga (2021-yil 10-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmogda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning

Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahrilloevna notarial idorasida marhum Ergashev Eldor Uktamovichga (2023-yil 20-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmogda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahrilloevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Yusupova Aziza Ubaydullayevnaga (2021-yil 30-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmogda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 158-uy.**

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Bekmirzayev Saydivaliga (2023-yil 27-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 76-uy.**

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasida marhum Ipatov Abdiganiga (2023-yil 27-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Muhammadiyev Farhod Jo'raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 76-uy**

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasida marhum Uralova Tursunga (2023-yil 11-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmogda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mirzayeva Barno Jo'raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko'chasi, 4-"A" uy.**

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarda marhum Gazizova Dilvara Djavdatovnaga (2023-yil 28-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmogda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslarga murojaat etishlarini so'raymiz.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti jamoasi geografiya va ekologiya fakulteti dekani o'rinbosari

**Olumjon QUVONDIQOV**ning vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga ta'ziya izhor etadi.

↓ Qatag'on qurbonlari xotirasi

# AKSILINQILOBIY FAOLIYATDA AYBLANGAN

1938-yil 16-mayda O'zbekiston SSRdagi chegara va ichki qo'shinlar harbiy tribunalida "aksilingilobiy-millatchilik" faoliyatida ayblangan bir guruh ichki ishlar xodimlarining jinoiy ishi ko'ri bilan boshlandi. Tergov hujjatlarida ushbu guruh rahbari va uni uyushtirganlardan biri sifatida 1897-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan, 1937-yil 25-sentabrda NKVD tomonidan hibsga olingan Narziqul Ibrohimov ko'rsatilgan.

Narziqul Ibrohimov kim edi? Nega NKVDning ishchi-dehqon militsiya boshqarmasiga qarashli Toshkentdagi 3-militsiya maktabining tarjimoni bo'lib ishlayotgan bu odam shaxsi xavfsizlik organlarini qiziqtirib qolgan?

Keling, uning hayot yo'liga bir nazar solaylik. Narziqul Ibrohimov 1914-yilgacha, ya'ni 17 yoshigacha otasi qaramog'ida bo'lgan. Bu davr ichida mahalladagi eski maktabda o'qib savod chiqardi. 1914-1916-yillarda Samarqanddagi "Treugolnik" magazinida ish boshqaruvchi bo'lib ishladi. Ana shu davrda rus tilini ham o'zlashtirdi. 1917-1919-yillarda Samarqand tumanida kooperatsiya (savdo uyushmasi) tizimida xizmat qildi.

1919-yilda u Samarqanddagi harbiy tribunal tergovchisi etib tayinlandi. Keyinchalik Samarqand viloyati tribunalining a'zosi bo'ldi va bu vazifada 1923-yil bahorigacha ishladi. Shundan so'ng bir necha oy davomida Jizzax jiroiy qo'mitasiga raislik qildi. 1923-yil oktyabr oyidan 1925 yil o'rtalarigacha "Qo'shchi" ittifoqining mas'ul kotibi vazifasini bajardi. 1925-1930-yillarda Samarqand shahar sudida himoyachilar kollegiyasi a'zosi edi. 1930-yildan hibsga olingunga qadar Samarqand, Toshkent shaharlarida militsiya organlarida xizmat qildi. Qamalgan paytida oilali bo'lib, 3 va 6 yoshli ikki nafar farzandi bor edi.


Unga qanday ayblar qo'yilayotgan edi? Avvalo, unga "Milliy ittihad" tashkiloti a'zosi bo'lgani, yillar davomida aksilingilobiy-millatchilik faoliyatini olib borganligi, tashkilotga yangi kishilarni tortganligi, shuningdek, "Milliy istiqloq" tashkilotiga a'zoli ham unga ayb sifatida taqilgan edi. Bularni hech bo'lmaganda qisman isbotlash uchun NKVD o'z qo'lidagi barcha imkoniyatlarni ishga soldi. Uning o'sha paytda aksilingilobiy-millatchilik faoliyatida ayblanib hibsga olingan Ro'zi Yusupov va boshqalar bilan yaqin aloqada bo'lganligiga oid dalillar izlandi. Shu maqsadda R.Yusupov va u bilan uchrashgan, birga ishlagan qator kishilar ham javobgarlikka tortilib, birin-ketin tergov qilina boshlandi. Ularning tergov jarayonlarida bergan javoblari bilan tanishar ekanmiz, Narziqul Ibrohimov shaxsi nega xavfsizlik organlari e'tiborini bunchalik tortganligini anglab yetganday bo'lamiz.

**Istat Usmonov** – NKVDning ishchi-dehqon militsiyasi boshqarmasiga qarashli 3-militsiya maktabining kursanti. 1937-yil 5-oktabrda hibsga olingan: "Men hech kim bilan sovetlarga qarshi fikr bildirib gaplashmaganman. Ro'zi Yusupovning xonadonida Ibrohimov bilan birga bo'lganman. U yerda palov tayyorlangan ekan. Tushlikdan so'ng men bu xonadondan tezda ketdim. Chunki ishim bor edi. Keyinchalik men Ibrohimovdan Yusupov kimligini so'radim. Shunda u Yusupovning Samarqanddan ekanligini va o'z vaqtida yuqori amallarda ishlaganligini aytdi. Yusupovning uyida necha marta bo'lganligimni esolmayman. Ba'zan unika buyumlarimni qoldirib ketar edim".

**To'lagan Mirazizov** – 1931-yildan ishchi-dehqon militsiyasi boshqarmasiga qarashli 3-militsiya maktabida tarjimon bo'lib xizmat qilgan: "Men militsiya maktabida tarjimon bo'lib ishlagan chog'imda ayblanuvchi Ibrohimov bilan sovetlarga qarshi mavzularida suhbatlashganman. Chunki militsiya maktabi rahbariyati mening o'qishni davom ettirishimga va shu bilan bir paytda o'qituvchilik ham qilishimga ruxsat bermadi. Iqtisodiy ahvolum og'ir edi. Bularning barchasi mening g'azabimni keltirardi. Ibrohimov bilan ana shular haqida gaplashganman. Narziqul Ibrohimov bir gal menga o'zining Xidiraliyev bilan yaqin munosabatda ekanligi haqida gapirgan. Uning aksilingilobiy ruhdagi barcha fikrlari meni sovet hokimiyatiga nisbatan nafratimni oshirish uchun aylanganligini keyin tushunib yetdim. Ibrohimov aksilingilobiy tashkilot a'zosi ekanligini men faqat tergov jarayonida bildim. Chunki u menga bu haqda hech qachon aytmagan".

**Qahhor Azizov** – ishchi-dehqon militsiyasi safida 1921-yildan xizmat qilgan. 1937-yil 7-oktabrda hibsga olingunga qadar Toshkent shahar 4-militsiya bo'limining boshlig'i vazifasida ishlagan: "Men Ibrohimovni yaxshi bilmayman. U bilan uch marta uchrashganman va bir gal mehmonda bo'lganman. Birinchi marta uni 1930-yilda Samarqandda uchratganman. 1936-yilda Toshkentda men ikki nafar samarqandlik hamshaharimni uchratdim. Ular meni tushlikka taklif qilishdi. Biz birgalikda Narziqul Ibrohimovnikiga keldik. U yerda Yusupov va yana bir necha kishi bor ekan. Tayyorlangan oshni yeb bo'lgandan keyin men uyga ketdim. Yusupov va Ibrohimovning aksilingilobiy faoliyati haqida hech narsa bilmayman. Men hech qanday aksilingilobiy-millatchilik tashkiloti safida bo'lmaganman va sovet hokimiyatiga qarshi suhbatlarda ishtirok etmaganman".

**Kamkor Umarov** – 1933-yildan ishchi-dehqon militsiyasi safida xizmat qilgan. Hibsga olingunicha Samarqanddagi 4-militsiya bo'limi boshlig'ining yordamchisi bo'lib ishlagan:



"Ibrohimov haqida shuni aytishim mumkin, men uning aksilingilobiy tashkilot a'zosi ekanligini umuman bilmaganman. To'g'ri, ba'zan sovet hokimiyatidan norozilik tuyg'ulari bilan sug'orilgan suhbatlar qurganmiz".

**Ota Yoqubov** – 1931-yildan ishchi-dehqon militsiyasi safida xizmat qilgan: "Ayblanayotgan Ibrohimovni 1935-yil oxirlaridan bilaman. Yusupovni ko'rganim ham yo'q va tanimayman ham. Hech qachon aksilingilobiy tashkilot a'zosi bo'lgan emasman. Millatchilik ruhidagi suhbatlarda qatnashmaganman. Ibrohimovning aksilingilobiy tashkilotda qatnashganligidan umuman xabarim yo'q. U kishi meni hech qanday aksilingilobiy-millatchilik ruhidagi tashkilot safiga tortmagan va bunga targ'ib ham qilmagan".

Shu ish bo'yicha NKVD tomonidan javobgarlikka tortilgan boshqa kishilarning va guvoh sifatida so'roq qilinganlarning ko'rsatmalaridan bilinib turibdiki, ularning hech biri Narziqul Ibrohimovning biror-bir aybini aniq dalillar bilan isbotlab, unga qarshi keskin fikrlar bildirishmagan.

To'g'ri, guvoh sifatida jalb qilingan Toshkent shahar Stalin tumani militsiya bo'limining tezkor vakili A'zam Eshonxo'jayevga o'xshash ayrim shaxslar uning ustidan har qanday ko'rsatmalar berishga tayyor edi (albatta, NKVDning ta'ziyoi ostida bo'lsa kerak): "Men Ibrohimovni 1930-yildan buyon bilaman. Lekin 1935-yilgacha uni qayta uchratmadim. Ibrohimov kelib chiqishiga ko'ra, dindorlar oilasidan. Uning xalq dushmani Ro'ziqul Yusupov xonadoniga borib turganligini va bu shaxs bilan yaqin aloqada bo'lganligini bilaman. Narziqul Ibrohimovning birorta ham ijobiy tomonini ko'rsatolmayman. U militsiya maktabi kursantlari bilan qo'pol muomalada bo'ladi".

A'zam Eshonxo'jayevning quyidagi gaplari esa N.Ibrohimov va u bilan birga jinoiy javobgarlikka tortilgan boshqa kishilar ustidan boshlangan sud jarayonlariga aslida nima sabab bo'lganligi va unga qachondan tayyorgarlik ko'rilganligi masalasiga oydinlik kiritadi: "Menga shu narsa ma'lumki, O'zSSR Ichki ishlar xalq komissariyati ishchi-dehqon militsiyasi boshqarmasi boshlig'i o'rtoq Romanovning topshirig'iga ko'ra, militsiya maktabining qaysi tinglovchilari boshqa kursantlarga salbiy ta'sir o'tkazayotganligini aniqlash hamda Usmonov ustidan bunday kishilar rahbari sifatida munozam kuzatuv olib borish vazifasi qo'yilgan edi".

Demak, N.Ibrohimov, I.Usmonov va boshqalar ustidan xufiyona kuzatuv amalga oshirish, ularning har bir qadamini, harakatini nazorat qilishga ancha oldin kirishilgan. Bu ishning boshida bevosita respublika militsiyasining Moskvadan yuborilgan o'sha paytdagi rahbari kapitan Romanov turgan.

Narziqul Ibrohimovga uning 1921-1923-yillarda "Milliy ittihad" tashkilotining a'zosi bo'lganligidan tashqari, bu harakat safiga 1935-1937-yillarda yangi a'zolarni jalb etish bilan shug'ullangan, militsiya maktabi tinglovchilari o'rtasida aksilingilobiy-millatchilik ruhidagi targ'ibotlar olib borgan, degan ayblar ham qo'yildi.

Mana, N.Ibrohimovning sudga bergan tushuntirishlaridan: "Men dastlabki tergov davomida ham, hozirgi sud majlisida ham 1921-1923-yillarda "Milliy ittihad" tashkiloti a'zosi bo'lganligimni inkor qilganim yo'q. 1923-yildan buyon bu tashkilot bilan umuman aloqam uzilgan. Men Usmonov, Azizov va boshqalarni "Milliy ittihad" safiga jalb qilmaganman. Chunki yuqorida aytganimdek, 1923-yildan buyon o'zim aloqani uzgan tashkilotga ishchi-dehqon militsiyasi maktabida ishlab turib qanday qilib o'zga kishilarni tortishim mumkin?".

Lekin O'zSSRdagi chegara va ichki qo'shinlar harbiy tribunalining 1938-yil 16-17-may kunlari Urusov raisligida bo'lib o'tgan yopiq majlisida N.Ibrohimov va boshqalar ishi ko'rib chiqilib, u oliy jazoga – otuvga hukm qilindi. Ushbu hukmni 1938-yil 28-sentabrda kassatsiya tartibida ko'rgan SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi uni o'zgarishsiz qoldirdi. Hukm tez orada jiro etilgan. Zero, turli tuhmatlar bilan NKVD tomonidan uyushtirilgan bunday "jinoiy ishlar" natijasida haq-huquqsizlik hukm surgan, sudlar yopiq tarzda o'tkazilgan o'sha mash'um davrlarda boshqacha bo'lishi ham mumkin emasdi.

Muzaffar MUQIMOV.



Ushbu surat bundan o'n besh yillar avval, Xotira va qadrlash kuni tadbirlarida olingan. Unda (chapdan) qishloq xo'jaligi fanlari bilimdoni, kartoshkachilikda taniqli olim, akademik Diamat Abdurkarimov, uzoq yillar rahbarlik lavozimida ishlab obro' topgan nuroniylar Abdulla Bahromov va Abdushukur Muhammadqulovni ko'rib turib. Safda to'rtinchi bo'lib turgan kishi - Toshbo'ri Qilichev o'z davrida qorako'chilikning piri edi. Sohadagi barcha qiyinchiliklarni mardonavor yengib o'tib, oddiy zootexniklikdan tuman hokimi, viloyat ijroqo'mining raisi va viloyat hokimining birinchi o'rinbosari darajasiga erishgan rahbar edi. Toshbo'ri Rahimovich mohir rahbarligi bois ijro intizomida safdoshlariga ibrat bo'lish barobarida ko'plab iqtidorli mutaxassis kadrlarga ustozlik qildi. Ushbu shukuhli kunlarda bunday fidoyilarimizga alohida hurmat bajo keltiramiz, o'tganlarining ezgu ishlarini xotirlaymiz.

## Ajdodlarimiz matonati unutilmaydi

Ikkinchi jahon urushi boshlangan payt otam - Sobirjon Yoqubov hayotining eng gullagan yoshlik chog'lari bo'lgan. 1941-yil 20 yoshida o'z ixtiyori bilan urushga borishga qaror qilgan.



Hujjatlardagi ma'lumotlarga ko'ra 1942-yil 17-yanvarda otamni 100-kavaler bataloni chaqiruviga qabul qilishgan. 1942-yilning yanvaridan aprel oyining oxirigacha Tula shahrida harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlarini o'tagan va 1-may sanasida frontga yuborilgan. O'sha paytda Bryansk shahri Rossiyaning Orlov viloyati tarkibida bo'lgan ekan. Bu yerda harbiy qurol-aslahalar zavodi, tekstil fabrikalar va zich o'rmonzorlar bo'lgan. Shahar ahli va harbiylarimiz dushmanga osonlikcha taslim bo'lmasdan, 1941-yilning oktabridan 1943-yilning sentabrigacha 60 ming askardan iborat 30 ga yaqin partizanlar otryadi tuzib, fashistlarga qarshi kurashgan. Matonatli qarshilik ko'rsatgan otryadlardan birining komandiri otam bo'lgan. O'sha janglarda ko'rsatgan qahramonliklari uchun serjant unvoniga ega bo'lgan.

1943-yil avgustning boshlarida Bryansk shahri atrofida dushman qurshab olib, bizzing jangchilarga qurol-yaroq va oziq-ovqat yo'llarini berkitgan. Bu ikki oylik

qurshovda qolgan askarlarning ayrimlari ocharchilikdan nobud bo'lgan. Otam o'z otryadidagi askarlarga dalda bo'lib, yordam kuchlari kelguniga qadar sabrli bo'lishga undagan.

1943-yil 17-oktabrda yangi qudratli qurolli kuchlar "Bryansk fronti" qo'shinlari kelib qo'shilib, fashistlarni birato'la shaharni qurshovdan ozod qilgan. Bir tomondan urush, bir tomondan ocharchilik va ko'p o'lim mazkur hududda tif kasalligi tarqalishiga sabab bo'lgan. Otam va bir guruh partizanlar kasallikka chalinib, davolanishga yuborilgan. Otam qariyb 2 oy davolan-ganidan so'ng qo'tiqtaoyoq bilan 1943-yil 14-iyunda Samarqandga qaytda. Bu yerda harbiy gospi-talda uch oydan ortiq davolanadi.

Otam Bryansk shahrida ko'rsatgan jasoratlari uchun "Jasorat", "G'alaba" ordenlari va boshqa bir qator medallar bilan taqdirlangan.

Urushdan xasta bo'lib qaytgach, Samarqanddagi 4-vagon deposi tashkilotida xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari lavozimida faoliyat boshlagan.

Uch marta Bog'ibaland qishloq kengashi deputatligiga saylangan.

Viloyat suv oqova boshqarmasida injener, boshqarma boshlig'i

o'rinbosari lavozimida mehnat qilgan.

1975-yil oxirida "Obi Rahmat" arig'i suvi ifloslanadi. Shu ariqdan suv ichib kelgan Mo-trudiy nomli katta bir qishloq aholisi toza ichimlik suvidan qiyalib qoladi. Otam qishloq aholisini bu suvdan foydalanmaslikka chaqirib, ularni toza ichimlik suvi bilan ta'minlashga va'da beradi. Ammo bu ishni bajarish sobiq ittifoq davrida oson emasdi. Ushbu masala bilan sobiq respublika rahbariyatiga murojaat qilganda, "Bu ish faqat "Markazqo'm" ruxsati bilangina amalga oshirilishi mumkin", degan javobni oladi. O'shanda otam qahraton qish bo'lishiga qaramasdan barcha hujjatlarni (loyihalarni) olib, Moskvaga jo'ndaydi. Bir hafta deganda "Markazqo'm"dan loyihalarni tasdiqlatib, qishloqqa yorug' yuz bilan qaytib keladi. Uning sharofati bilan qishloq toza ichimlik suvi bilan ta'minlanadi.

Bugungi yorug', musaffo osmonimiz sofligini, hozirgi tinch, osuda hayotimizni ta'minlash uchun buki kildas iroda va jasorat namunasini ko'rsatgan, Vatani uchun aziz jonini fido qilgan mard va jasur ota-bobolarimiz matonatini hech qachon unutmaymiz!

F.YOQUBOV

## SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

**12-MAY**  
**Hamdam BERDIYO'ROV** – (1918-1984) Paxtaxti tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan maorif xodimi, tilshunos olim.

**13-MAY**  
**Vohid ABDULLAYEV** – (1912-1985) Samarqand shahrida tug'ilgan. Adabiyotshunos. Akademik.

**14-MAY**  
**Sharif AZIMOV** – 1954-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan. Kulol. O'zbekiston Badiiy akademiyasining haqiqiy a'zosi.

**Toshpo'lat SAFAROV** – 1953-yilda Kattaqo'rg'on tumanida tug'ilgan. Texnika fanlari doktori, professor.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438, 12 171 nusxada chop etildi. Buyurtma 245. Hajmi 2 bosma ta'biq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.



Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

X.ERNAZAROVA.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



9 1772010667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda